



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махаммаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerlarni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истиқболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxonaning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Маҳаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**INNOVATSION IQTISODIYOT G‘OYALARI VA ULARNI OLIY TA’LIM TIZIMI
ORQALI QO‘LLASHNING NAZARIY ASOSLARI**

**ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ИННОВАЦИОННЫХ ЭКОНОМИЧЕСКИХ ИДЕЙ И
ИХ ПРИМЕНЕНИЕ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ**

**THEORETICAL BASIS OF INNOVATIVE ECONOMIC IDEAS AND THEIR
APPLICATION THROUGH THE HIGHER EDUCATION SYSTEM**

Xaydarov Miryakub

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Baxtiyorov Ixtiyar

Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti

Annotatsiya

Ushbu maqolada innovatsion iqtisodiyotning nazariy asoslarini va oliy ta’limning bilim iqtisodiyotini rivojlantirishdagi roli muhokama qilingan. Shuningdek, unda Milliy innovatsion tizim doirasida oliy ta’lim muassasalarini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari ham keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Innovatsiya, oliy ta’lim, bilim iqtisodiyoti, startaplar, infratuzilma.

Статья посвящена теоретическим основам инновационной экономики и роли высшего образования в становлении экономики знаний. Раскрываются основные направления совершенствования учебных заведений высшего образования в Национальной инновационной системы.

Ключевые слова: Инновации, высшее образование, экономика знаний, стартапы, инфраструктура.

There is discussed in the article the theoretical foundations of the innovation economy and the role of higher education in developing the knowledge economy. It also explores key areas for improving higher education institutions within the National Innovation System.

Keywords: Innovation, higher education, knowledge economy, startups, infrastructure.

O‘zbekistonda ta’lim sohasini izchil isloh qilish jarayonida zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu bilan birga, sohaning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, oliy ta’lim va ishlab chiqarish o‘rtasidagi integratsiyani yangi bosqichga olib chiqish hamda ta’lim xizmatlari bozorining sifat jihatidan o‘sib borayotgan talablarini qondirishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar tizimli ravishda amalga oshirilmoqda.

Mazkur islohotlar doirasida “oliy ta’lim muassasalarida ta’lim, fan, innovatsiya va ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish jarayonlarining o‘zaro uzviy bog‘liqligini ta’minlashga xizmat qiluvchi “Universitet 3.0” konsepsiyasini bosqichma-bosqich joriy etish” [1] strategik maqsad sifatida belgilangan. Ushbu yondashuv oliy ta’lim tizimini nafaqat bilim beruvchi institut, balki iqtisodiy va innovatsion rivojlanishning faol subyektiga aylantirishni nazarda tutadi.

Mazkur yo‘nalishlarda olib borilayotgan tadqiqotlarni chuqurlashtirish oliy ta’lim tizimi samaradorligini oshirishning muhim sharti hisoblanadi.

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida mashhur bo‘lgan bozor raqobatbardosh modeli — texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlarda postindustrial, bilimga asoslangan va innovatsion iqtisodiyot sharoitida to‘laligicha eskirgan. Agar texnologik jihatdan rivojlangan mamlakatlar bozor raqobatbardosh modeliga e’tibor qaratishda davom etsalar, unda mukammal raqobatga intilishda

ularning milliy iqtisodiyoti tobora ko‘proq bir-biri bilan raqobatlashadigan son-sanoqsiz va o‘zaro borayotgan o‘rta, kichik va mayda iqtisodiy subyektlarni ifodalagan bo‘lar edi.

Buning o‘rniga, global iqtisodiy yetakchilar o‘zlarining yetakchi korxonalarining butunlay kuchayib borayotganini namoyish etmoqdalar. Bugungi kunda Trans Milliy Korporatsiyalar monopol hokimiyatlarini nafaqat o‘z sohaslariga, balki milliy va ba‘zan global iqtisodiyotga ham ishonchli tarzda kengaytirib, mega-korporatsiyalarga aylanmoqdalar. Bunday monopoliyalari o‘zlarida nafaqat ishlab chiqarish korxonalarini, balki ilm, fan, ta‘lim va boshqa ijtimoiy muassasalarni ham qamrab olmoqdalar.

Hozirda innovatsion rivojlanishga o‘tishda hal qiluvchi omillar quyidagilar hisoblanadi:

- bozor sharoitlari va raqobat (ham ichki, ham tashqi bozorlar);
- innovatsion infratuzilma (fan-texnologiyalar, ishlab chiqarish va moliyalashtirish tizimi hamkorligining darajasi, qonunchilik va me‘yoriy-huquqiy baza, siyosiy va iqtisodiy barqarorlik);
- kadrlar (olimlar, mutaxassislar, tadbirkorlar, menejerlar, siyosatchilar, davlat xizmatchilari);

Boshqacha qilib aytganda, innovatsion rivojlanishning asosiy omili kadrlardir va oliy ta‘lim muassasalari bu kadrlarni tayyorlashda, xoh olimlar, xoh tadbirkorlar, menejerlar, siyosatchilar yoki boshqalar bo‘lsin, hal qiluvchi rol o‘ynaydi.

Shuning uchun ham innovatsion iqtisodiy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishda oliy ta‘limning rolini to‘liq ro‘yobga chiqarish borasidagi tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasi, sanoat jamiyatidan postindustrial jamiyatga o‘tish sharoitida paydo bo‘lib, bunda bilim, axborot va texnologiyalar rivojlanishning asosiy resurslariga aylanmoqda. Zamonaviy iqtisodiyotda, nafaqat rivojlangan mamlakatlarda, innovatsiyalarga raqobatbardoshlik ustunligi, barqaror o‘sish va farovonlikning asosiy manbai sifatida qaratiladi.

Innovatsion iqtisodiyot nazariyasining asoslari institutsional iqtisodiy fikr asoschilarining asarlarida qo‘yilgan. Jozef Shumpeter birinchi bo‘lib innovatsiyani iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi sifatida belgilagan. 1911-yilda yozilgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi" [1] asarida u innovatsiyaning asosiy yo‘nalishlari sifatida belgilagan "yangi kombinatsiyalar" tushunchasini kiritdi. Bularga quyidagilar kiradi:

- yangi mahsulotlar;
- yangi texnologiyalar;
- yangi bozorlar;
- yangi xom ashyo manbalari;
- ishlab chiqarishni tashkil etishning yangi shakllari.

Shumpeter tadbirkorni innovatsiyaning asosiy agenti, eskirganlarni tashlab, eng ilg‘or iqtisodiy usullarni qo‘llaydigan inqilobchi sifatida ta‘kidlaydi. Shumpeterning fikricha, aynan shu narsa iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlaydi.

Uning innovatsion iqtisodiyot nazariyasi bo‘yicha ishi neoklassik iqtisodiy fikr maktabi vakillari tomonidan ishlab chiqilgan va kengaytirilgan bo‘lib, ular iqtisodiy rivojlanishdagi texnologik taraqqiyot kabi tashqi omillarga asosiy e‘tibor qaratganlar (Solow va Hayek asarlari).

Bundan tashqari, o‘sishning ichki omillariga asoslangan iqtisodiy o‘sish nazariyalari paydo bo‘ldi. Masalan, Pol Romer bilim va ko‘nikmalarni iqtisodiy o‘sishning ichki omillari deb hisoblagan [1]. Inson kapitali va ta‘limning rolini ta‘kidlagan Robert Lukas ham shunga o‘xshash pozitsiyalarga ega edi [2].

Ularning kontsepsiyalarining asosiy g‘oyalarini quyidagicha umumlashtirish mumkin:

- bilim to‘planadi;
- innovatsiya ijobiy tashqi ta‘sirlarni yaratadi;
- ilmiy-tadqiqot va ishlanmalar investitsiyalar va iqtisodiy o‘sishni rag‘batlantiradi.

1980 va 1990-yillarda yangi g‘oyalar paydo bo‘la boshladi: milliy innovatsion tizimlar nazariyasi. Ushbu nazariyaga ko‘ra, mamlakatning innovatsion faoliyati yangi texnologiyalarni ishlab chiqish va tarqatishga alohida va birgalikda hissa qo‘shadigan va poydevor yaratadigan turli xil muassasalar to‘plamining bilimlarni yaratish va ulardan foydalanish bo‘yicha kollektiv tizim elementlari, shuningdek, ular foydalanadigan texnologiyalar sifatida bir-biri bilan qanday o‘zaro

ta’sir qilishiga bog‘liq. Ushbu kontseptsyani ishlab chiquvchilar orasida Kristofer Friman [3], Bengt-Ake Lundvall [4] va boshqalar ushbu nazariyani rivojlantirishga hissa qo‘shgan. Milliy innovatsion tizim o‘zaro ta’siri innovatsiyalarni yaratish va tarqatishni ta’minlaydigan institutlar (hukumat, universitetlar va biznes) to‘plami sifatida qaraladi. Ushbu tizimning asosiy elementlari quyidagilardir:

- tadqiqot tashkilotlari;
- ta’lim muassasalari;
- innovatsion infratuzilma;
- davlat siyosati.

Bilimlar iqtisodiyoti nazariyasi innovatsion iqtisodiyot atrofidagi g‘oyalar tizimida muhim o‘rin tutadi. 1990-yillarning oxiridan boshlab "bilimlar iqtisodiyoti" yoki "bilimga asoslangan iqtisodiyot" (ingliz tilidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri "knowledge-based economy" deb tarjima qilingan) atamasi G‘arb va Rossiya fanida keng tarqalgan. U 1962-yilda avstriyalik-amerikalik olim Fritz Machlup tomonidan ilmiy muomalaga kiritilgan. Bu turdagi iqtisodiyot o‘zining avvalgilaridan, agrar yoki sanoat iqtisodiyotidan farq qiladi, chunki tabiiy va moddiy resurslar (yer, xom ashyo va uskunalar kabilar) iqtisodiy boylik yaratish uchun asos bo‘lib xizmat qilishda davom etsa-da, butun iqtisodiy tizimning o‘sishi va rivojlanishi endi tashqi omillar bilan emas, balki ichki, nomoddiy omillar bilan ta’minlanadi, Ularning eng muhimi bilim va inson kapitali hisoblanadi.

Bilimlar iqtisodiyoti bu borada eng ilg‘or yetakchi mamlakatlarda ijtimoiy-iqtisodiy, shuningdek, texnologik va institutsional rivojlanishning yangi darajasini tavsiflaydi, dunyoning qolgan rivojlanayotgan mamlakatlari va/yoki bozor iqtisodiyotiga o‘tayotgan mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu konsepsiyada Peter Drucker "bilim xodimi" tushunchasini, bilim iqtisodiyotini va xizmat ko‘rsatish sohasining ustunligini kiritdi [1], Fritz Machlup esa bilimning iqtisodiy resurs sifatidagi rolini asoslab berdi [2].

Bugungi kunda bilim iqtisodiyotining quyidagi xususiyatlari ajralib turadi:

- intellektual mehnatning ustunligi;
- ta’lim va fan rolining qo‘shilgan qiymat yaratilishida ortib borayotganligi;
- yuqori texnologiyali sanoat ulushining ortishi.

Yana innovatsion iqtisodiyotning muhim yo‘nalishi — Maykl Porterning raqobatbardoshlik omillari sifatida klasterlar va raqobatbardoshlik afzalliklari konsepsiyasi [3]. Bular innovatsiyalarga asoslangan iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lib xizmat qilmoqda.

Uning qarashlariga ko‘ra, klasterlarning hududiy yoki sanoatga mansubligidan qat’i nazar, klasterlar bir nechta ishtirokchilarning o‘z sa’y-harakatlarini yagona yo‘nalishda birlashtirishi natijasida sinergik samara yaratadi. Bu innovatsiyalarni kuchaytiradi, bilim almashinuvini osonlashtiradi va unumdorlik va ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlikni sezilarli darajada oshiradi.

Zamonaviy tadqiqotlar innovatsion iqtisodiyotni kompyuterlashtirish va raqamlashtirish bilan bog‘laydi. Bu jarayonlar sun’iy intellekt, katta ma’lumotlar va bulut texnologiyalarini rivojlantirish, raqamli platformalarni shakllantirish va sanoat 4.0 ga o‘tish bilan bog‘liq bir nechta bog‘liq ta’sir sohaslarini qamrab olmoqda. Bu borada o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlar, jumladan, O‘zbekiston Respublikasi, quyidagi xususiyatlar bilan tavsiflanadi:

- innovatsion iqtisodiyotni rivojlantiruvchi institutsional muhitni yaratish zarurati;
- milliy innovatsion tizimlarni (MIT) rivojlantirish zarurati;
- tadbirkorlar, olimlar va yoshlar orasida startaplar va texnoparklarni qo‘llab-quvvatlash;
- davlatning innovatsiyalarni rag‘batlantirish va innovatsion siyosatni amalga oshirishda faol rolining ortib borishi.

O‘zbekistonda innovatsion siyosatni amalga oshirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilmoqda:

- raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish;
- ilmiy-tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash;
- xalqaro innovatsion reytinglarga integratsiyani jadallashtirish.

Innovatsion iqtisodiyotga o‘tish sharoitida oliy ta’lim tizimi inson resurslarini rivojlantirish, bilim yaratish va texnologiyalarni uzatish uchun asosiy muassasalarga aylanmoqda. Universitetlar

an'anaviy ta'lim muassasalaridan innovatsion rivojlanish markazlariga aylanmoqda, va bunda ta'lim, fan va biznesni birlashtirmoqdalar. Shu nuqtai nazardan oliy ta'lim, nafaqat ijtimoiy sohaga, balki mamlakatning barcha sohalarida raqobatbardoshligini belgilovchi iqtisodiy resursga aylanmoqda. Bilimlar iqtisodiyoti konsepsiyasi doirasida zamonaviy dunyoda inson resurslarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Burjua mafkurasida inson resurslari konsepsiyasi inson kapitali nazariyasi bilan almashtirilmoqda.

Inson kapitali nazariyasi ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniy va ijtimoiy rivojlanishni quyidagilarga qaratilgan investitsiyalar sifatida ko'rib chiqadi:

- bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish;
- mehnat unumdorligini oshirish;
- daromad va hayot sifatini oshirish;
- ilg'or turdagi mahsulotlarga talabni rag'batlantirish.

E'tirof etish lozimki, hozirda, universitetlar faoliyati, inson resurslarini rivojlantirish nuqtai nazaridan:

- iqtisodiyotning intellektual salohiyatini shakllantirishga yo'naltirilmoqda;
- bunda, ta'lim sifatining takomillashishi — innovatsiyalarga bevosita ta'sir qiladi;

Bugungi iqtisodiy voqelikka xos, innovatsiyalar ta'sirida iqtisodiyotda o'zgarishlar jadallashib bormoqda. "Globallashuvning hozirgi darajasi ijtimoiy va iqtisodiydan tortib siyosiygacha bo'lgan turli davlatlar faoliyatiga tobora ko'proq ta'sir ko'rsatmoqda. Bundan tashqari, inqiroz transformatsiyasi jarayoni bir necha yo'nalishda sodir bo'lmoqda. "Avvalo, biz iqtisodiy rivojlanishning siklik tabiatida o'zgarishlarni ko'rmoqdamiz va shunga mos ravishda retsessiyalar va iqtisodiy inqirozlar chastotasi o'zgarib bormoqda." [4] Ya'ni agar ilgari iqtisodiy tikillar 7-9 yilda yakunlangan bo'lsa (70-80 yillar), hozirda asosiy vositalar ma'naviy eskirishi jadallashgani sari, iqtisodiy sikllar davomiyligi 3-4 yilgacha qisqargan.

Shuni uchun, oliy ta'lim muassasalari muqarrar ravishda iqtisodiy sikllarni tezlashish muammosiga duch kelmoqda. Chunki bakalavrlar 4 yilda, tasdiqlangan dasturlarga ko'ra ta'lim olguncha, joriy iqtisodiy sikl yakunlanishiga ulgurmoqda. Natijada, ta'lim dasturlari va amaliyot talablari o'rtasida nomutanosibliklar va oliy ta'lim iqtisodiyotida qarama-qarshiliklar vujudga kelmoqda.

Iqtisodiy sikllarning tezlashishi sharoitida uzluksiz ta'lim zaruratga aylanib bormoqda. Oliy ta'lim muassasalari uzluksiz ta'limda ham ilmiy, ham metodologik jihatdan muhim roli ortib borishi muqarrardir.

Ilm fan rivojlanishi nuqtai nazardan, universitetlarning milliy innovatsion tizimlardagi roli alohida e'tibor talab qiladi. Kristofer Friman va Bengt-Ake Lundvallning fikriga ko'ra, universitetlar tadqiqot tizimlarining asosiy elementlari hisoblanadi. Innovatsion tizimdagi oliy ta'lim muassasalarining mohiyati quyidagicha tasvirlanadi:

- ilmiy bilimlarni yaratish;
- malakali kadrlar tayyorlash;
- texnologiyalarning fandan amaliyotga transferi;
- sanoat bilan o'zaro bir-biriga ta'sirining kuchayishi.

Oliy ta'lim muassasalarining innovatsion iqtisodiyotdagi muhim roli Loet Leydesdorff tomonidan Uchlik spiral modeli bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda ta'kidlangan. Ushbu model hukumat va biznes o'rtasidagi hamkorlikni nazarda tutadigan siyosiy model bilan taqqoslanadi.

Bilim iqtisodiyotiga yo'naltirilgan Uchlik spiral modelida rivojlanishning ilmiy axborot komponentini ta'minlaydigan oliy ta'limga asosiy rol beriladi. Ushbu model universitet, biznes va hukumat o'rtasidagi o'zaro ta'sirni tasvirlaydi. Uchlik spiral modelining asosiy g'oyalari quyidagilarni ifodalaydi:

- universitetlar tadbirkorlik institutlariga aylanadi;
- ularning ilmiy natijalarini tijoratlashtirish kuchayadi;
- universitet tizimida innovatsion infratuzilma (texnoparklar, startaplar) rivojlanadi.

Innovatsion iqtisodiyot doirasida universitetlarga innovatsiya markazlari sifatida qaraladi. Tadbirkorlik universiteti konsepsiyasini shu nuqtai nazardan ko'rib chiqish kerak. Iqtisodiy

rivojlangan mamlakatlarda zamonaviy universitetlar innovatsion iqtisodiyotda startaplarni yaratish, biznes-inkubatorlarni rivojlantirish va ular ishlab chiqadigan yangi texnologiyalarni tijoratlashtirishda ishtirok etish kabi muhim funksiyalarni bajaradi.

Bunday universitetlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardir:

- qaror qabul qilish va moliyalashtirishda ularning mustaqilligining ortishi va moslashuvchanligi;
- ta'lim xizmatlari va ilmiy tadqiqotlarni qamrab oluvchi bozorga yo'naltirilganligi. Va nihoyat,
- universitetlar ta'lim, fan va tadbirkorlikning integratsiyasini osonlashtiradi.
- universitetlar bilim ishlab chiqaruvchilarga aylanadi;
- universitetlar innovatsiya markazlariga aylanadi;
- universitetlar raqamli transformatsiyaning asosiy ishtirokchilariga aylanadi.

Oliy ta'lim muassasalari faoliyatidagi asosiy tendensiyalar quyidagi o'zgarishlar bilan tavsiflanadi:

- raqamli ta'limga o'tishning ortib borishi, o'quv jarayonida kompyuter texnologiyalaridan, simulyatsiya modellaridan va ularga asoslangan o'yinlardan foydalanish;

- onlayn ta'limning barcha shakllarining kengayishi;
- ta'limda katta ma'lumotlar va sun'iy intellektdan foydalanish.

Progressiv innovatsion texnologiyalar butun ta'lim tizimida, jumladan, oliy ta'limda tobora ko'proq joriy etilmoqda. Innovatsion yo'nalishlar qatoriga quyidagilar kiradi:

- Loyiha asosida o'qitish. Rag'batlantirilgan moduli ta'lim tizimida har bir modul alohida loyihani amalga oshirish sifatida qaraladi, natijada talabalar har bir modal doirasida belgilangan bilim va ko'nikmalarni to'liq egallaydilar. Bu ta'limning eng muhim tamoyillarini amalga oshiradi: diskretlik va uzluksizlik;

- Muammo asosida o'qitish. O'qitish talabalar guruhi tomonidan ma'lum birorta ilmiy yoki amaliy muammoni yechishda bajarilgan islar orqali erishiladi. Bu amaliy ish ko'nikmalarini mustahkamlaydi;

- Raqamli platformalar. Ta'lim muassasalari turli dasturiy mahsulotlardan foydalangan holda har bir fan uchun ko'p o'lchovli va nazariy bilimlarning barcha jihatlarini qamrab olish uchun yetarli bo'lgan ma'lumotlar bazalarini yaratmoqdalar. O'zbekiston oliy ta'lim tizimida bunday platforma "HEMIS" hisoblanadi;

- Gibril va masofaviy o'qitish. COVID-19 pandemiyasi davridan so'ng O'zbekistondagi oliy ta'lim muassasalarida masofaviy o'qitish jadal rivojlanmoqda. Hozirgi vaqtda ushbu tizim zaruratga qarab oflayn va onlayn o'qishni birlashtiradi.

Oliy ta'lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar quyidagi natijalarga erishishga qaratilgan:

- nafaqat talabalar, balki avvalam bor, professor-o'qituvchilar orasida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish;

- innovatsion muammolarni hal qilish yondashuvlariga yo'naltirilgan professor-o'qituvchilar kompetensiyalarini rivojlantirish, shu bilan birga ushbu ko'nikmalarni talabalarga o'rgatish;

- mehnat bozorida raqobatning kuchayishi sharoitida, ta'limning amaliy yo'nalishini oshirish.

Hozirgi sharoitda innovatsion ta'limning rivojlantirishdagi roli beqiyos darajada o'sib bormoqda. Davlat strategik kelajak uchun ta'lim va innovatsiya siyosatini ishlab chiqdi, unga quyidagilar kiradi:

- tadqiqot va ishlanmalarni moliyalashtirish;

- turli grantlar va subsidiyalarni berish orqali universitetlar va biznes o'rtasidagi o'zaro aloqalarni rag'batlantirish.

- milliy ta'limni rivojlantirish dasturlarini har tomonlama rag'batlantiradi;

Ilmiy, yoshlar va tadbirkorlik startap ekotizimlarini aniqlaydi va qo'llab-quvvatlaydi. Bu borada universitetlar va tadbirkorlarni innovatsion rivojlanishga qaratilgan turli yondashuvlar rivojlanib bormoqda (1-jadvalni qarang).

O‘zbekiston universitetlari uchun startap grantlari

	Ko‘rsatkich	Qiymati	Davr	Izoh / Manba
1.	Dastur	"Universitetlar startap generatorlari sifatida"	2026 yildan	Universitet startaplarini rivojlantirish bo‘yicha milliy tashabbus
2.	Har bir startap uchun grant miqdori (universitetda)	100 million so‘mgacha	2026-yilda	Har bir universitetda g‘oliblarga grantlar
3.	Umumiy tanlov jamg‘armasi:	10 milliard so‘m	yiliga	Universitetlar o‘rtasidagi respublika tanlovi
4.	Tanlov yo‘nalishlari soni:	10 ta yo‘nalish	2026-yilda	Innovatsiya sektori bo‘yicha bo‘linish
5.	Universitet akseleratorlari orqali moliyalashtirish	20 000 dollargacha	2026-yilda	Universitet inkubatorlari va akseleratorlari
6.	Moliyalashtirish tashkilotchilari	IT Park + venchur fondlari + universitetlar	2026-yildan boshlab	Aralash qo‘llab-quvvatlash modeli
7.	G‘oliblar uchun qo‘shimcha investitsiya	1 milliard so‘mgacha	2026-yilda	Eng yaxshi startaplar uchun (masshtablar)
8.	Qabul qiluvchilar:	Talabalar, magistratura talabalari va ilmiy xodimlar	Doimiy	Universitet innovatsion muhiti
9.	Infratuzilma:	Akseleratorlar, inkubatorlar va amaliyotlar.	2026-yildan boshlab	Universitetlarni startap ekotizimiga integratsiya qilish

Universitet startaplarini qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida O‘zbekistonda birinchi marta "universitet = startap generatori" modeli amalga oshirilmoqda. Shunday qilib, universitetlar quyidagilarga aylanmoqda:

- Innovatsiya markazlari
- Akseleratsiya platformalari
- Tadqiqotlarni tijoratlashtirish manbalari

Ushbu moliyalashtirish shakllari quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

Grantlar → 100 million so‘mgacha

- Mikroinvestitsiyalar → 20 000 dollargacha
- Katta investitsiyalar → 1 milliard so‘mgacha

Asosiy g‘oya to‘liq siklni yaratishdir. Bu quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

g‘oya → prototip → tezlashtirish → masshtablar

Uni amalga oshirishda bir nechta quyidagi muassasalar ishtirok etadi:

- Universitetlar
- IT Park O‘zbekiston
- Venchur fondlari
- Davlat innovatsion fondlari

Ushbu model nafaqat xavflarni kamaytiradi va startaplarni moliyalashtirishni kuchaytiradi. Moliyalashtirish ko‘lami mamlakatda ilgari amalga oshirilgan loyiha va tadqiqot dasturlari uchun barcha moliyalashtirishdan oshib ketadi.

- Yillik fond: 10 milliard so‘mgacha ajratiladi.
- Qamrov: Barcha davlat universitetlari
- Yo‘nalish: 10 ta sanoat sohasi

Adabiyotlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasi Shumpeter g‘oyalaridan raqamli iqtisodiyotning zamonaviy nazariyalariga qadar rivojlandi. Bunda diqqat bilim,

texnologiya va ularni tarqatishning institutsional mexanizmlariga qaratilgan. Shu sababli, O‘zbekiston va boshqa rivojlanayotgan mamlakatlar uchun asosiy vazifa samarali innovatsiya tizimini yaratish va inson resurslarini rivojlantirishdir.

Innovatsion iqtisodiyot konsepsiyasini oliy ta’lim tizimiga qo‘llash universitetlarni chuqur o‘zgartirishni talab qiladi. Ular innovatsiya tizimining asosiy elementlariga aylanadi, bilim yaratish, inson kapitalini rivojlantirish va iqtisodiy o‘rishni ta’minlaydi.

Ushbu konsepsiyani muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun quyidagilar zarur:

- Innovatsion infratuzilmani rivojlantirish;
- Fan, biznes va hukumat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kuchaytirish;
- Zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish.

2026-yildan boshlab O‘zbekistonda universitet startap grantlarining tizimli modeli ishlab chiqiladi. Ushbu model quyidagilarni amalga oshiradi:

- Ta’lim va biznesni birlashtiradi;
- Universitetlar ichida innovatsiya uchun rag‘batlantirishni kuchaytiradi;
- Ilmiy tadqiqotlardan startaplar oqimini yaratadi;
- Milliy innovatsion iqtisodiyot asoslarini sezilarli darajada yaxshilaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида»ги 28.01.2022 йилдаги ПФ-60-сон <https://lex.uz/docs/5841063>
2. Шумпетер Й. Теория экономического развития. — М.: Прогресс, 1982.
3. Romer P. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. — 1990.
4. Lucas R. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. — 1988.
5. Freeman C. Technology Policy and Economic Performance: Lessons from Japan. UNKNO 1994
6. Юлдашев Ш. Г. «Особенности трансформации экономических кризисов и циклов в мировой экономике» <https://elibrary.ru/item.asp?id=25522718>
7. Lundvall B.-Å. (Bengt-Åke Lundvall) National Systems of Innovation. Toward a Theory of Innovation and Interactive Learning Wimbledon Publishing Company 2010
8. Drucker P. Post-Capitalist Society HarperBusiness, 1993.
9. 1962. *The Production and Distribution of Knowledge in the United States*. Princeton: Princeton University Press. ISBN: 9780691003566 Published: Jan 21, 1973 Copyright: 1962 Pages: 436
10. Porter M. The Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990.